

ISHLARNI BAJARISH SHARTNOMASI

“4” dekabr 2022 yil

02/12-sonli

Qo'qon sh.

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan Qo'qon Davlat pedagogika instituti nomidan nizom asosida ish yurituvchi D.SH. Xodjayeva bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladigan "ART NUR INVEST" MCHJ nomidan nizom asosida ish ko'ruvchi SH.N. Jabborov ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani tuzdilar.

I. SHARTNOMA MAVZUSI

1.1. Bajaruvchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq yong'inga qarshi kimyoviy ishlov berish xizmati bo'yicha majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Bajaruvchiga ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

II. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Bajaruvchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi natijasida aniqlangan va tanlov komissiyasining qarori bilan tasdiqlangan ishlar qiymati.

Xizmat nomi	Miqdor	O'lchov birligi	Narxi	So'm
Yong'inga qarshi kimyoviy ishlov berish	8 507	M2	3 500	29 774 500
				29 774 500

barcha soliqlar, yigimlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda 29 774 500 so'm QQSsiz.

2.2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlar qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;
- ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

2.3. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Bajaruvchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

III. BAJARUVCHINING MAJBURIYATLARI

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Bajaruvchi mazkur shartnomaning I bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomada nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;
- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

3.2. Bajaruvchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan zarur tarzda bajarilishi hamda obyektни topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

IV. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

4.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun maydonini Bajaruvchiga berish, tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;
- shartnomaga muvofiq avans berish amalga oshirish; mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

V. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

5.1. Shartnoma tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

5.2. Bajaruvchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

5.3. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan ishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 5 ish kunini tashkil etadi.

VI. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

6.1. Buyurtmachi Bajaruvchiga shartnoma imzolangan kundan boshlab 30 kun ichida 30 foiz avans o'tkazadi.

6.2. Ishning qolgan 70 foizi uchun Buyurtmachi va Bajaruvchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob ishlar tugallangandan keyin va ob'ekt buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin hisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

VII. ISHLARNI BAJARISH

7.1. Bajaruvchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning V bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan obyektida ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

7.2. Ishlarni bajarish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Bajaruvchining vazifasi hisoblanadi.

7.3. Bajaruvchi o'zi tomonidan ishlarni bajarishda asbob- uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

7.4. Agar Buyurtmachi Bajaruvchi tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Bajaruvchi o'z kuchlari bilan va ish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir. Agar Bajaruvchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa Bajaruvchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida etkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

VIII. ISHLAR QO'RIQLASH

8.1. Bajaruvchi ishlar boshlanishidan tugallangungacha va tugallangan obyekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan ish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

IX. TOMONLARNING MULKIY JAVOB ARLIGI

9.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

- ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'qrisida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

9.2. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Bajaruvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning) umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

- Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli etkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

9.3. Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Bajaruvchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

- Penya to'lash Bajaruvchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishshshg kechikishi tufayli etkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

9.4. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

9.5. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

X. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

10.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

10.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Bajaruvchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

10.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir,

XI. KAFOLATLAR

11.1. Bajaruvchi:

- barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;
- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi tomlar, kons'gruktsiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatliyalarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqqligini;
- ishlarni qabul qilish va obyektidan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;
- obyektidan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqqligini kafolatlaydi.

11.2. Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Bajaruvchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

XII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

12.1. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi buyurtmachiga bogliq bo'lmagan sabablarga ko'ra Bajaruvchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Bajaruvchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Bajaruvchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;
- Bajaruvchi tomonidan shartnoma shartlari ish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

12.2. Bajaruvchi:

- ishlarning bajarilishi Bajaruvchiga bogliq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;
- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

12.3. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

12.4. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

12.5. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIII. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

13.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek, yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

XIV. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH BO'YICHA BANDLAR

14.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish doirasida tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish qoidalariga, shu jumladan amaldagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlaydi; ularning xodimlari, filiallari, benefitsiarlari va ularning sheriklari, shartnomani bajarish bo'yicha kontragentlar pora berish yoki olish, tijorat poraxo'rlik, pora olishda vositachilik qilish, davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berishdan voz kechishlarini ta'minlash; yoki moddiy yoki nomoddiy foyda olish. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha choralar ko'rishni kafolatlaydi.

14.2. Tomonlar korruptsiyaga qarshi kurash qoidalarini buzilgan yoki asosli shubhalar yuzaga kelgan taqdirda bir-birlarini darhol yozma ravishda (anticorruption@uks.uz elektron pochta orqali) yoki telefon orqali (+9978-140-74-48) xabardor qilish majburiyatini oladilar. Tomonlar vaziyatga oydinlik kiritish

maqsadida yozma tushuntirish so'lashga haqli, murojaatni qabul qilgan Tomon esa 10 (o'n) ish kuni ichida o'z fikri bo'yicha bayonot berishi yoki izoh berishi mumkin.

14.3. Ushbu moddaning talablari, shu jumladan, korrupsiya xavfini belgilangan muddatda bartaraf etish, tomonlar tomonidan korrupsiyaga oid vaziyatning pasayishiga olib kelmagan choralar ko'rilmagan taqdirda, boshqa tomon o'z faoliyatini tugatish, shartnomani tuzish yoki uning bajarilishini to'xtatib turishga haqli.

14.4. Ushbu moddada nazarda tutilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilishni talab qilgan tarafga yetkazilgan zararni qoplash ushbu shartnomaning 9-qismida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi, shu bilan birga ushbu moddada nazarda tutilgan majburiyatlarni buzgan tomon shartnomani bir tomonlama bekor qilish natijasida etkazilgan zararlar uchun kompensatsiyani talab qilishga haqli emas.

XV. ALOHIDA SHARTLAR

15.1. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

15.2. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

15.5. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi va 2022 yilning 31 dekabriga qadar amal qiladi.

XVI. TOMONLAR BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI:

BAJARUVCHI

"ART NUR INVEST" MCHJ

Manzil: Sirdaryo viloyati, Guliston shahri,
Navoiy ko'chasi 15-uy

Hisobraqam: 2020 8000 1002 5822 1001

Bank: ATIB Ipoteka bank Sirdaryo filiali

MFO: 00364; STIR: 302719043

Tel: 93 320-81


Rahbar: SH.N. Jabborov

Imzo

BUYURTMACHI:

QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
QO'QON SHAHAR, TURON K-SI, 23-UY
Tel/fax: 73-542-38-38, 542-02-57
Shxr: 4009 1086 0304 0570 9410 0079 001
STIR: 200 131 171 OKONX: 92110
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA VAZIRLIGI G'AZNACHILIGI
X/ri: 2340 2000 3001 0000 1010
XKKM MARKAZIY BANK TOSHKENT SH. BB
MFO: 00014 STIR: 201 122 919

Imzo

Imzo:  R. Nazarov